



O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGI HOLATI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1965-1985-YILLAR)

Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich

Zarmed universiteti "ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya: 1965–1970-yillarda O'zbekiston qishloq hududlarida savdo xizmatlarining rivojlanishi kolxoz va sovxozlarda qurilgan savdo do'konlari va savdo muassasalarining soniga bevosita bog'liq edi. O'zbek xalqining qahramonona mehnati natijasida yangi yerlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda yangi tumanlar, shaharlar, sovxoz va kolxozlar bunyod etildi. Mirzacho'lning yangi o'zlashtirilgan joylarida Guliston, Zarbdor, Zafarobod, Mehnatobod, Mirzacho'l, Mirza-obod, Oqoltin, Paxtakor, Sayxunobod, Sharof Rashidov 410 tumanlari, Baxt, Guliston, Do'stlik, Paxtakor, Yangiyer shaharlari, yuzga yaqin sovxoz va kolxozlar, cho'lquvar-lar uchun turar joylar qurildi.

Kalit so'zlar: Kolxozlar, Mirzacho'l, paxta yetishtirish, mineral o'g'itlar, qishloq xo'jaligi, Amu Buxoro kanali, xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish, zaharli ximikatlar.

Kirish. O'tgan asrning so'nggi o'n yilligida O'zbekistonda yashovchi barcha millatlar taqdirida tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati yillari davom etgan davrda mustabid asoratdan xalos bo'lish o'zbek xalqining jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallash imkonini berdi. Istiqlol o'tmishni o'rganish, xolisona baholashga keng imkoniyatlar yaratdi. Ayni paytda, mustaqil O'zbekiston Respublikasida bir tomondan mustabid tuzumning uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan asoratlarini bartaraf etish, ikkinchi tomondan esa taraqqiyotning yangi bosqichida barcha sohalardagi mavjud muammolarni hal etishda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda islohotlar amalga oshirishdan iborat muhim vazifalar turibti.



O'zbekistondagi xalq xo'jaligi kengashi ham 100 dan ortiq sanoat tarmog'iga ega bo'lgan 1500 dan ko'proq korxonani birlashtirgan holda ish olib bordi. Bunday haddan tashqari markazlashtirib rahbarlik qilish ham dastlabki yillardanoq hayotda o'zining salbiy tomonlarini ko'rsatdi. Misol uchun, 1961 yilda O'zbekiston xalq xo'jaligi kengashiga qarashli 49 korxona ishlab chiqarish rejasini bajara olmagan natijasida 36 million rubllik mahsulot yetkazib berilmadi. 1962 yilda esa 404 ta sanoat korxonasidan 36 tasi yillik rejani bajarmagan oqibatida 15 mln rubl miqdorida mahsulot yetkazib berilmadi. Bu qaror bilna butun Respublika miqyosida paxta yetishtirish va bu sanoatning rivojlanishi orqali iqtisodiy aloqlarning yo'lga qo'yish masalasi ko'tarildi. Aynan qarorda O'zbekistonda 1946-1953 yillarda davlatga paxta sotishni ikki baravar ko'paytirish belgilandi¹.

1960–1970-yillarda O'zbekiston qishloq hududlarida savdo xizmatlarining rivojlanishi kolxoz va sovxozlarda qurilgan savdo do'konlari va savdo muassasalarining soniga bevosita bog'liq edi. 1960- yillarda qishloqlarda savdo do'konlari qurish uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan, shu bois, qishloq joylarda savdo do'konlari soni ehtiyoj darajasida bo'lmagan. Yana bir tomoni, do'konlar qurishda qishloqlarda aholi punktlarining sharoitlari, aholining xarid darajasi va boshqa faktorlar hisobga olinmagan. Shu sabab aksariyat do'konlar aholi ko'p bo'lgan, ularga talab yuqori joylarda qurilmay, balki keraksiz joylarda qurilgan. 1965-1970 yillar oralig'ida qishloq aholisiga jami 7 milliard 420 million so'mlik mahsulotlar sotilgan. Agar buni boshqa raqamlarda ko'rsatadigan bo'lsak, 1970 yilda qishloq hududlarida savdo aylanmasi 1965 yilga qaraganda 45 foizga oshgan. Umuman, bu yillarda respublika qishloq aholisining iste'mol xaridi shaharlardagidan orqada qolayotgan edi. 1975 yilda chakana savdo aylanmasi shaharlarda aholi jon boshiga 800 so'mni, qishloqda esa 364 so'mni tashkil qilgan. Xususan, oziq-ovqat tovarlari bo'yicha shunga muvofiq 386 va 157 so'mni, undan boshqa tovarlar bo'yicha esa 414 va 189 so'mni tashkil qildi. Yana bir jihatni e'tiborga olish kerakki, mazkur davrda qishloq aholisi tovarlarning aksariyat qismini shaharlardagi

¹ Choriyev Fazliddin. "Yagona xalq xo'jaligi kompleksining xalqaro aloqalarida O'zbekistonning ishtiroki (qishloq xo'jaligi misolida) 1946-1980. Research Fokus ilmiy tadqiqot jurnali. 2024 yil №3ю 27-bet.



do'konlardan xarid qilgan. Masalan, qishloq aholisi sanoat, maishiy texnika, kiyim-kechak kabi mollarni shahar do'konlaridan xarid qilgan va bu yalpi xarid qilingan tovarlarning taxminan 38 foizini tashkil qilgan.

O'zbekiston qishloq aholisiga savdo xizmati ko'rsatish yuqori darajada emas edi. Ko'pgina aholi punktlarida 1985 yilgacha ham savdo korxonalari va umumiy ovqatlanish muassasalari bo'lmagan. 3000dan ortiq qishloq aholi punktlari savdo korxonalariga ega bo'lmagan. 8375 qishloq aholi punktlari ovqatlanish muassasalariga ega bo'lmagan. 77 ming aholiga ega bo'lgan 152 ta qishloq aholisi yashash joyidan 10 kmdan va undan ortiq masofada joylashgan oziq-ovqat magaziniga borishga majbur bo'lgan. Qishloq aholisi turmush darajasidagi o'sishni ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri aholi jon boshiga o'rtacha tovar aylanmasi bo'lib, bu ko'rsatkich 1975 yilda 319 so'mni, 1980 yilda 405 so'mni, 1985 yilda esa 447 so'mni tashkil etib, 10 yil ichida 40,1 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich shaharlarda 35,7 foizga oshgan. Muhim bir xususiyat – qishloqlarda kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi magazinlar ham bo'lgan. Gazeta va jurnallarni chakana tarqatish salmog'i 1962-1964 yillarda oshgan bo'lsa-da, uning qiymati juda kam edi. Bu avvalo, gazeta-jurnallar narxining arzonlashishi bilan bog'liq edi².

1960-yillarning oxirlarida ham qishloqdagi 2-3 ta xonadonda televizor bo'lgan, xolos. Radio 1965-1970 yillarda qishloq aholisining 85 foizida bo'lganligi haqida ma'lumot olindi. Muzlatkich ham qishloq aholisi xonadonlariga, asosan, 1980 yillardan kirib kelgan va u 18 foiz aholining uyida bo'lgan, xolos. Farg'ona vodiysi qishloqlarining 80 foizdan ortiq xonadonlarida (tadqiqot olib borilgan 15 ta qishloq bo'yicha olganda) 1980-yillar oxirida ham muzlatkich bo'lmagan. 1960-1980-yillarda qishloq aholisiga bozorlar, do'konlar va umumiy ovqatlanish muassasalari xizmat ko'rsatgan. 1960 yilda O'zbekistonning 140 ta sovxozida 237 ta oshxona, 330 ta bufet va choyxonalar faoliyat yuritgan. Sovxozlarda umumiy ovqatlanish muassasalari savdo aylanmasi 1959 yilda 1957 yilga nisbatan 2 barobarga ko'paygan. 1970-1980 yillar oralig'ida esa qishloq joylarda umumiy ovqatlanish

² Raimjonov Ziyoxiddin. "Farg'ona vodiysidagi qishloqlarning XX asr 60-80 yillardagi infratuzilmasidagi o'zgarishlar". TADQIQOTLAR jahon ilmiy – metodik jurnali 52-son_3-to'plam_Dekabr-2024 79-bet.



muassasalarining savdo aylanmasi olti baravarga o'sgan. Oshxonalarda ovqatlanuvchi ishchi va xizmatchilar soni oshib borgan. Dala shiypnolarida dala ishlari qizg'in paytda issiq ovqat tashkil qilingan. Qishloq maktablarida oshxona va bufetlar faoliyati ham ko'ngildagidek yo'lga qo'yilmagan edi. Masalan, Andijon viloyatida 1960 yilda 382 ta maktablarda bufetlar bo'lmagan.

Shu munosabat bilan 1961-yili 127 km uzunlikdagi eng yirik Janubiy Mirza cho'l kanali qurib bitkazildi. U 350 ming gektardan ortin yerni sug'orishga mo'ljallandi. Shuningdek, 1968-yili 63 km uzunlikdagi Markaziy Mirzacho'l kollektori qurildi. Bu sug'orish inshootlari Mirzacho'lni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Respublikaning boshqa mintaqalarida ham muhim inshootlar barpo etildi. Jumladan, Amudaryodan Buxoro viloyatiga suv yetkazish maqsadida 1965-yili uzunligi 200 km bo'lgan Amu—Buxoro kanali qurildi. Uning suvini 67 m balandlikka tortib beruvchi yirik nasos stansiyalari bunyod etildi. Kanal ishga tushishi bilan Buxoro viloyatida 90 ming gektar yer, shu jumladan, 26 ming gektar yangi yerlar sug'oriladigan bo'ldi. Bundan tashqari, Qizilqum sahrosida maydoni 300 ming gektardan ortiq bo'lgan yaylovlar suv bilan ta'minlandi. Qarshi dashti, Surxon-Sherobod vodiysini o'zlash-tirish boshlanishi munosabati bilan u joylarda ham katta sug'orish inshootlari qurilishi boshlandi. Janubiy Surxon suv ombori, Zang, Sherobod va Amu—Zang kanaUari-ning qurilishi Surxon-Sherobod vodiysini sug'orishga imkon berdi. O'zbek xalqining qahramonona mehnati natijasida yangi yerlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda yangi tumanlar, shaharlar, sovxoz va kolxozlar bunyod etildi. Mirzacho'lning yangi o'zlashtirilgan joylarida Guliston, Zarbdor, Zafarobod, Mehnatobod, Mirzacho'l, Mirza-obod, Oqoltin, Paxtakor, Sayxunobod, Sharof Rashidov 410 tumanlari, Baxt, Guliston, Do'stlik, Paxtakor, Yangiyer shaharlari, yuzga yaqin sovxoz va kolxozlar, cho'lquvar-lar uchun turar joylar qurildi. Shuningdek, Surxon-Sherobod, Qarshi dashtlarini o'zlashtirishda ham katta qurilish ishlari olib borildi, ko'plab tumanlar, shaharlar, sovxozlar tashkil qilindi. Respublikada yirik suv omborlari ham bunyod etildi. Urushdan keyingi ikki o'n yillikda 10 ta suv ombori qurildi. Jumladan, Buxoro viloyatida Quyimozor,



Qashqadaryo viloyatida Chimqo'rg'on, Toshkent viloyatida Toshkent suv omborlari ishga tushirildi. Paxta maydonlarini kengaytirish maqsadida sovet hukurnati tomonidan sug'orish inshootlari tarmog'ining shiddat bilan kengaytirilishi respublika uchun katta salbiy oqibatlariga olib keldi. Kanallar, suv omborlari va boshqa suv inshootlari qo'riq yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, bu inshootlar yaqin atrofidagi joylarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu irrigatsiya qurilishteri natijasida yer osti suvlari sathi yuqoriga ko'tarilib, haydaladigan yerlarni sho'r va botqoq bosdi, bog'-rog'lar, tokzorlar qurib qoldi. Yangi paxta ekinzorlarini barpo etish maqsadida puxta o'ylanmagan sug'orish inshootlarini qurish, Sirdaryo va Amudaryodan ko'p suv olish Orol dengizining qurishiga sabab bo'ldi. Bu esa Orol fojiasini keltirib chiqardi, Orolbo'yi mintaqasidagi vaziyatni mushkullashtirib qo'ydi. Markaz ko'rsatmasiga ko'ra respublika qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi paxtachilikni har tomonlama rivojlantirishdan iborat edi. Undan kelib chiqib oziqovqat yetkazib beruvchi tarmoqlarga yetarli e'tibor berilmasdi. G'alla, chorvachilik, poliz-sabzavot mahsulotlari, kartoshka yetishtirish talab darajasida emas edi. 1970-yilga qadar qishloq xo'jaligining bu tarmoqlari past sur'atlar bilan rivojlanib keldi. 1970-yilda g'alla, kartoshka yetishtirish urushdan oldingi darajadan past edi³. Umuman olganda, 1970-yili oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish darajasi respublikada urushdan oldingi darajada edi. Holbuki, paxta yetishtirish uch baravardan ziyod (1,3 mln t dan 4,5 mln t ga) ko'paydi. Oziq-ovqat yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini mexanizatsiyalashtirish darajasi juda past edi. Buning natijasida oziq-ovqat ekinlarini ekish va hosilni o'rib-terib olish muddatlari cho'zilib ketardi. Ularga solish uchun mineral o'g'itlar kam ajratilardi. Eng unumdor ekin maydonlari g'o'za ekish uchun berildi. G'o'za oziq-ovqat ekinlarini yaroqsiz yerlarga, tog' oldi joylarida o'zlashtirish mushkul bo'lgan zarang yer va to'qaylarga siqib chiqardi. Shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining cheklanishi qishlon xo'jalik ishlab chiqarishining pasayishiga, aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi yomonlashishiga olib keldi. Tomorqa uchastkalari normalari 1950-yilgacha

³ Nazirov Baxtiyor Safarovich, Yaqubova Dilorom Tadiyevna, O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha). Darslik – "Bekshox print servis" nashriyoti. – Termiz: 2023. 409-410 betlar



sugʻoriladigan yerlarda 0,15 gektardati 0,25 gektargacha deb belgilangan boʻlsa, 1950-yilning yanvar oyidan boshlab tomorqa yerlari va chorva tuyoqlari qisqartirildi. Tomorqa uchastkalarining maydoni qisqartirilib, 0,12—0,15 gektarga tushirildi. «Normadan yuqori» degan bahona bilan sugʻoriladigan yerlar olib qoʻyildi, bogʻlar, tokzorlar kesib tashlandi, chorva tortib olindi. Dehqonlarning tomorqa maydonlarini kamaytirish keyingi yillarda ham davom etdi. Chunonchi, 1956-yildayoq dehqon tomorqasining oʻrtacha maydoni 0,1 gektarni tashkil qildi. Shaxsiy xoʻjalikda, odatda, bitta ona-bola sigir, ikki yashargacha boʻlgan bir bosh qoramol, 4-6 bosh qoʻy, echki boqishga ruxsat berilar edi. Shaxsiy tomorqa xoʻjaligiga nisbatan bunday munosabat bu qishloqda sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga toʻsqinlik qiladi, degan qoidadan kelib chiqqan edi. Shu sababli «jamoat chorvachiligining ziyoniga, aholida chorva koʻpayishiga» yoʻl qoʻygan xoʻjaliklar tanqid ostiga olindi. Qishloq xoʻjaligi oziq-ovqat mahsulotlari bilan respublika aholisi ehtiyojini qondira olmadi. Oʻzbekistonda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan fiziologik normalardan ancha kam edi. Oʻzbekistonning iqlimi va tuproq sharoitlari oziq-ovqat mahsulotlarini zarur miqdorda ishlab chiqarish imkonini berardi. Lekin yalpi paxta hosilini oshirish ketidan quvish respublikada oziq-ovqat muammosini hal qilish imkoniyatlarini cheklab qoʻydi. Qishloq xoʻjalik kadrlari. Urush yillari respublikadagi erkaklarning katta qismi frontga joʻnab ketishi munosabati bilan qishloq xoʻjaligida barcha toifadagi kadrlar soni keskin kamaydi. Qishloq xoʻjalik mutaxassislarini tayyorlash muhim vazifa boʻlib qoldi. Qishloqda asosiy xodimlar mexanizatorlar kadrlarni 412 tayyorlash MTS lar qoshidagi qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash maktablari va kurslari orqali olib borildi. 1944-1950-yillarda turli ohalar boʻyicha 50 ming nafar mexanizatorlar tayyorlashga muvaffaq boʻlindi. 60-yillarda mexanizatorlar tayyorlashning eng samarali shakli qishloq hunartexnika bilim yurtlari boʻlib noldi. Qishloq hunar-texnika bilim yurtlari qishloq xoʻjaligining barcha sohalari uchun mexanizatorlar: tokarlar, elektrchilar, traktorchilar, kombaynchilar, mashinada sut sogʻish operatorlari, parrandaboqarlar va boshqalarni tayyorlab berardi. Ularda



o'quvchilar kasb bilan birga o'rta ma'lumot ham olardilar. Qishloq hunar-texnika bilim yurtiga 8-sinfni tamomlagan yoshlar qabul qilinardi. Bunda noto'g'ri tartib belgilandi: o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'qishni davom ettirish uchun maktabda qoldirilar, o'zlashtirishi past o'quvchilar majburiy ravishda qishloq hunar-texnika o'quv yurt-lariga yuborilar edilar. Qishloq yoshlari bunday o'quv yurtlarida o'qishni istamasdilar, chunki xo'jaliklardagi mehnat rag'batlantirilmas edi. Buning natijasida qishloq hunartexnika bilim yurtlaridan kasb-korni yetarlicha egallamagan mutaxassislar yetishib chiqardi.

Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida respublikaga beriladigan mineral o'g'itlar va zaharli ximikatlar-yildan-yilga ko'payib bordi. 1951-yili mineral o'g'itlar 0,9 mln tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1970-yili ularning miqdori 3,5 mln tonnaga yetdi. Holbuki, ko'pgina xo'jaliklarda mineral o'g'itlar ham xuddi texnika singari mahalliy shart-sharoitlar: iqlim, tuproq strukturasi, yer osti suvlari sathi va minerallanish darajasi va boshqa omillarni yetarlicha hisobga olinmay ishlatib kelindiki, bu tabiiy tuproq unumdorligiga katta ziyon yetkazdi. Ayniqsa, paxta dalalarida zaharli ximikatlarning ishlatilishi qishloq aholisi uchun fojiali bo'ldi. Bu o'ta zaharli ximikatlar g'o'za zararkunandalariga qarshi kurashda va paxtani mashinada terishga tayyorlash uchun g'o'za barglarini sun'iy to'kishga isblatilardi⁴. Fan-texnika yutuqlarining paxtachilikka joriy etilishi, umuman olganda, ijobiy hodisa edi. Biroq merkaptafos, buti-fos va boshqa zaharli ximikatlardan haddan ortiq ko'p foydalanish salbiy oqibatlarga olib keldi. 1964- yili respublika dalalarida 150 ming tonnaga yaqin 30 xildan ortiq zaharli ximikatlar qo'llandi. Bundan tashqan, ularni saqlash va ishlatishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yildi. Markaz ko'rsatmasi bilan paxta dalalariga aviatsiya damida zaharli ximikatlarni sepish-yildan-yilga ken- bordi. 1964-yili paxta maydonlarining 66,5 foiziga aviatsiya yordamida zaharli moddalar bilan ishlov berildi. O'sha-yili 659 kishi zaharlandi, ularning ko'pchiligi jjayotdan ko'z yumdi. Odamlar zaharli ximikatlardan yoppasiga zaharlana boshladilar. Markaz O'zbekistonni mamlakatning asosiy paxta bazasi hisoblar, qanday bo'lmasin ko'proq

⁴ Nazirov Baxtiyor Safarovich, Yaqubova Dilorom Tadiyevna, O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha). Darslik – "Bekshox print servis" nashriyoti. – Termiz: 2023. 417 betlar



paxta olishni o'ylar, O'zbek xalqining manfaatlari bilan hisoblashmasdi. o'ta zaharli himikatlarning paxtachilikda keng qo'llanishi tufayli o'lim hollari, og'ir kasb kasalliklarining ko'payishi respublika jamoatchiligini tashvishga soldi. Deputatlar, vrachlar, olimlar paxta dalalarida o'tkir zaharli ximikatlar ishlatilishiga asosli e'tiroz bildirdilar. Shuni hisobga olib respublika rahbarlari Sharof Rashidov va Rahmonqul Qurbonov Ittifoq hukumatiga kuchli ta'sir qiluvchi zahar-li ximikatlar o'rniga boshqa ximikatlar jo'natishni so'rab 1969-1970 yillarda bir necha bor murojaat qildilar. Xatlarda ko'rsatilishicha, paxta zararkunandalariga qarshi kurashda uzoq yillar davomida o'ta zaharli moddalarning qo'llanishi tufayli ariq suvlari, tuproq, atmosfera me'yordan bir necha baravar ortiq zaharlangan. Bu inson va hayvonot dunyosi, umuman, tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ittifoq rahbar tashkilotlari kam ta'sirli ximikatlar chet eldan olinadi, bunga valyuta yo'q, deb bahona qildilar. Vaholanki, Ittifoq valyutasining salmoqli qismi paxta eksporti evaziga olinardi. Zaharli ximikatlardan paxtachilikda keng foydalanish biologik va ekologik oqibatlardan tashqari, jiddiy ijtimoiy oqibatlariga ham olib keldi. Respublikada kasalliklar soni ortib, ayniqsa, bolalar o'rtasida o'lim hollari ko'paydi, farzand ko'radigan yoshdagi ayollarning salomatligi yomonlashdi. Paxtachilik moddiy texnik moddiy texnika bazasining Markaz tomonidan mustahkamlanishi paxta xom 418 ashyosi yetishtirishning ko'payishiga olib keldi. O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishni bir qadar rag'batlantirish maqsadida paxta xom ashyosining xarid narxlari oshirildi, mineral o'g'itlarga imtiyozli narxlar saqlab qolindi. Ko'rilgan choralar natijasida paxta tayyorlash rejalari bajariladigan va oshirib bajariladigan bo'ldi. Markaz paxta xom ashyosi ishlab chiqarish yuzasidan O'zbekiston uchun belgilangan rejani bajarishga doir respublika ishlarini qattiq nazorat qilib bordi. Paxta bo'yicha topshiriqlarning bajarilmasligi jiddiy choralar ko'rilishiga — oliy hokimiyat doiralarida muhokama qi-lishdan tortib jinoiy javobgarlikka tortilishgacha sabab bo'ldi. Chunonchi, 1947-yilda paxta topshirish rejalarining bajarilmaganligi Markazda muhokama qilindi. Respublika rahbariyati «mahalliy vazifalarni deb umumdavlat manfaatlari unutilib qo'yganlikda» ayblanib, O'zbekiston rahbari



Usmon Yusupovga hayfsan e'lon qilindi. Yerni o'zlashtirish asosan paxta ekishga mo'ljallangan edi. 1965-yili suv chiqarilgan yangi mintaqada bitta bog'dorchilik-uzumchilik va 16 ta paxtakor xo'jaliklar faoliyat ko'rsatdi. Respublika irrigator, meliorator va cho'lquvarlari-ning fidokorona mehnati bilan yangi yerlar o'zlashtirilib, g'o'za ekiladigan maydonlar kengayib bordi. Paxta maydoni 1960-1970-yillarda 1386 ming gektardan 1709 ming gektarga, ya'ni 323 ming gektarga ortdi. Shu davrda respublikada sug'oriladigan yerlar maydoni atigi 253 ming gektarga ortgan edi. Ko'rinib turibdiki, paxta maydoni yangi sug'oriladigan yerlardan tashqari, poliz va bog'dorchilik ekinlari yerlari hisobiga ham ko'paydi. Markazning zo'rlik siyosati bilan paxta uchun hamma narsa qurbon qilindi. Tomorqa yerlari yo'qqa chiqarildi. O'zbek dehqonlarining mehnatsevarligi, yerni, paxtani ardoqlashi natijasida respublikada paxta yetishtirish-yildan-yilga 419 ortib bordi. Yalpi hosil 1945-1970 yillarda 50 ming tonnadan 4 mln. 495 ming tonnaga, ya'ni 5,3 baravar ko'paydi.

1960-yilga kelib g'alla ekin maydonlari 894800 gektargacha kamaytirilgan, paxta ekiladigan maydon hisobi esa 1386600 gektarga yetkazilgan. Ushbu raqamlar yildan yilga o'sib boraverdi va 1985-yilga kelib, 2 million gektarni tashkil etdi. O'z-o'zidan savol tug'iladi. Paxta yetishtirish uchun yildan yilga ko'payib borgan maydonlar qanday qilib shakllantirildi? Ushbu savolga quyidagicha javob berish mumkin: birinchidan, xalq hayoti uchun muhim bo'lgan boshqa ekinlarni kamaytirish hamda bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirish. Yuqorida g'alla va poliz ekinlari uchun ajratilgan yerlarning kamayganligiga guvoh bo'ldik. Bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirishda Markaz rahbariyati Mirzacho'lga o'z e'tiborini qaratdi. 1956-yil 6-avgustda KPSS MK va SSSR Ministrlar Soveti tomonidan "Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSR dagi Mirzacho'lning bo'z yerlarini sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida" Qaror qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 1964-yildan boshlab har yili kamida 320-340 ming tonna paxta xomashyosini yetishtirish mo'ljallangan edi. 1956-1959-yillarda bu yerda 35,5 ming gektar yer sug'orilib, 460 km.li sug'orish tarmoqlari, 630 km.li



ochiq kollektorlar yotqizildi. O'z o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Mirzacho'lni o'zlashtirish davomida "sifat emas, balki songa" ahamiyat berildi. Hududlarning tuproq unumdorligi, hosildorligi, qilinayotgan ishlarning sifat darajasiga e'tibor qilinmadi. Natijada ushbu hududlardan kutilgan darajada hosil olinmadi, paxta xomashyosining hosildorligi keskin kamaydi. Xususan, "Glavsredazsovxozstroy" tomonidan 1986-yilgacha o'zlashtirilgan 880 ming gektar yerning 595 000 gektari yaroqsiz holga keldi. 1971-1985-yillarda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatida 2,3 mln. gektar yerning meliorativ holati yomonlashib, 670 ming gektar yerdagi zovurlar qayta ta'mirlandi. Mirzacho'lni o'zlashtirishda hududimizdan oqib o'tuvchi ikkita eng yirik daryolar Amudaryo va Sirdaryoning suvidan keng foydalanildi. Buning natijasida ushbu daryolarning Orol dengiziga quyiladigan suv miqdori keskin kamaydi. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda hududimizdagi eng ulkan bo'lgan Orol ekologik muammosiga zamin yaratdi. Amudaryoning quyi oqimida baliqchilik, mo'ynachilik, ovchilik xo'jaliklari yo'q bo'lib ketdi. Paxtachilik va chorvachilik 1980 – 1985-yillarda har yili 30 mln rubldan ortiqroq zarar ko'rdi. Bundan tashqari, paxta hosildorligini oshirishda qishloq xo'jaligida kimyoviy mahsulotlardan keng foydalanish joriy qilindi. Yil sayin qishloq xo'jaligini kimyolashtirish kuchaytirildi. Agarda 1965-yilda O'zbekistonga mineral o'g'itlar yetkazib berish 2 550 000 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1970-yilda u 3 496 000 tonnaga ko'paydi. O'z o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, ekin maydonlariga kimyoviy o'g'itlar bilan ishlov berish jarayonida aholining manfaatlari inobatga olinmadi, ularning inson salomatligiga zarar yetkazishiga e'tibor qaratilmadi. Buning natijasida esa, xalqimiz orasida turli kasalliklarning ommaviy tarqalishi kuchaydi. Ayniqsa, paxtaga ishlov berishda ishlatiladigan DTT o'ta xavfli kimyoviy moddalardan biri hisoblanardi. Ko'pgina G'arb davlatlarida 70-yillardayoq undan foydalanish ta'qiqlangan bo'lishiga qaramasdan, Sovet davlati undan keng ko'lamda foydalanishda davom etdi. 1970-yilgacha boshqa ko'pgina davlatlarda uni aholi jon boshiga tahminan 300 grammdan qo'llashgan bo'lsa, O'zbekistonda bu miqdor 7-8 kg dan to'g'ri kelardi. Bundan tashqari aynan ushbu modda nafaqat traktorlar bilan balki qishloq xo'jaligi



aviatsiyasi yordami bilan ham dalalarga sepilar edi. Bunday zaharli moddalarni aviatsiya orqali sepilganda ular suv yuzasida, qishloqlardagi binolarning tom qismida hamda havoda to'planib qolardi va keyinchalik ham inson salomatligiga zarar yetkazishda davom etardi⁵.

Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni yangi sovxozlar, ularning xo'jalik binoalari, aholi yashaydigan posyolkalar bunyod etish bilan birga olib borildi. 1956-1965 yillarda Mirzacho'lda 84 ming gektar o'zlashtirildi. 16 ta paxtachilikga ixtisoslashgan, 1 ta bog'dorchilik sovxozlari tashkil etildi. 1957 yil Yangi-Yul, 1961 yilda Guliston shaharlari vujudga keldi. 1953-1963 yillarda Markaziy Farg'ona cho'llarida 72,4 ming gektar yer o'zlashtirildi, 16 ta yangi kolxoz, 2 ta sovxoz vujudga keldi. Jizzax cho'lida 670 ming gektardan ko'proq yangi yerlar o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda Mirzacho'l (1967), Do'stlik (1970), Zafarobod (1973), Arnasoy (1977) tumanlari tashkil etildi. Shunday qilib O'zbekiston hududida 1946-1965 yillar qariyb 600 ming gektar yangi sug'oriladigan yerlar ishga tushirilgan bo'lsa, 1966-1985 yillarda 1,6 mln. Gektar yangi yerlar o'zlashtirilib foydalanishga topshirildi. Ammo o'zlashtirilgan yerlarga yangi ko'chirilgan asosiy aholi mahalliy millat vakillari bo'lib, aholi xo'jaliklarini joylashtirish, ularni uy-joy bilan ta'minlash ishlari qoniqarsiz ahvolda bo'ldi. Respublikaning yangi o'zlashtirilgan bir qancha tumanlariga ko'chirib keltirilgan xo'jaliklarga nisbatan ijtimoiy yordam qog'ozlarda bitilgan chora-tadbirlarni qamrab ololmasdi. Oqibatda bir qator viloyatlar aholisining yashash sharoiti umuman zamon talabiga javob bermagan va iqtisodiy jihatdan orqada qolishiga sabab bo'lgan⁶.

Qarshi dashtida uzunligi 165 kmga boradigan Qarshi magistral kanali va Tallimarjon suv ombori asosiy irrigatsiya inshootlari edi. Qarshi kanalini qurish 1974-yili tugallandi. Ketma-ket joylashtirib qurilgan 6 ta nasos stansiyasi Amudaryo suvini 132 m balandlikka ko'tarib beradigan bo'ldi. Ana shu eng yirik irrigatsiya inshootlarining ishga tushirilishi Qarshi dashtidagi qo'riq yerlarni sug'orishga imkon

⁵ Aslonov J. "XX asrning 60-80-yillarida O'zbekistondagi iqtisodiy hayot" Образование и инновационные исследования (2023 год № 12). 164 bet

⁶ Toshpo'latov Nurbek. "Urushdan keyingi yillarda o'zbekistonning iqtisodiy hayoti. respublikamizning agrar xo'jaligi". JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM). 2024. 68 bet



berdi. O'zbekistonda 1985-yilga kelib 20 dan ortiq suv omborlari ishlaydigan bo'ldi. Shu bilan birga kanallar soni ham ortdi.

Xulosa

Paxtakor xo'jaliklarning dehqonlari dam olish va bayram kunlari nimaligini bilmay, erta tongdan quyosh botguncha jaziramada mehnat qilib, haddan tashqari oz ish haqi olardi. Har bir qishloq oilasi a'zosiga to'g'ri keladigan oylik daromad, masalan, Rossiyada 98,1 so'mni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda u 58,8 so'mga teng bo'ldi. Quvayt, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar xalqlari "qora oltin" - neft hisobiga badavlat yashaganlari holda o'zbek xalqi "oq oltin" — paxta hisobiga kambag'allik darajasidan past sharoitda yashab keldi. Bunga xalq xo'jaligini boshqarishning ma'muriybuyruqbozlik tizimi va respublika, uning tub xalqi manfaatlari bilan hisoblashmaydigan mustamlakachilik siyosati sababchi edi. Paxtachilik va chorvachilik 1980 – 1985-yillarda har yili 30 mln rubldan ortiqroq zarar ko'rdi. Bundan tashqari, paxta hosildorligini oshirishda qishloq xo'jaligida kimyoviy mahsulotlardan keng foydalanish joriy qilindi. Yil sayin qishloq xo'jaligini kimyolashtirish kuchaytirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. "O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RIVOJLANISH TARIXI" ILM SARCHASHMALARI. Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Urganch – 2023.- 150 bet

2. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. 1950-YILLARDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHDA DAVLAT SIYOSATINING MOHIYATI. "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 14-17-betlar



3. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. 1950-80-YILLARDA O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI IXTISOSLASHTIRILISHI TARIXIDAN. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI. Ilmiy-nazariy jurnal 2024, № 12, dekabr 42-45-betlar.

4. Nasilloev Sunnat Shavkat o'gli "Problems and solutions of training scientific personnel through postgraduate studies in agricultural sciences in the Uzbek SSR (on the example of the 1960s-1970s)", Scientific Bulletin of Bukhara State University, 12/2024.-P.47-51

5. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich 1950-yillarda Buxoroda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish tarixidan. "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" III xalqaro ilmiy konferensiya 25.05.2024. 29-32-betlar

6. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. RURAL ECONOMY IN BUKHARA REGION REFORMS IMPLEMENTED (1965-1985) ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, 4(30), 18-24, 2025.

RURAL ECONOMY IN BUKHARA REGION REFORMS IMPLEMENTED (1965-1985). B ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (T. 4, Выпуск 30, cc. 18–24). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15561398>
71-75-betlar

7. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. BUXORO OBLASTIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR YETISHTIRISH (1965-1985-YILLAR MISOLIDA) Vol. 3, No. 5: Vol. 3 No. 5 (2025): "Scientific Exploration and Research and international scientific journal".

<https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/1300/1170> 652-655-betlar

8. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. BUXORODA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH TIZIMI TARIXIDAN Journal of Science, Research and Teaching Vol. 4, No. 3, Mar - 2025 ISSN: 2181-4406 1-7-betlar.